



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 30 - avgust

VI-64-169-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil II chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budjetining 2023-yil II chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil II chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 4 148,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2023-yil 30-avgustdagi
VI-64-169-8-109-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining joriy yil davomiga ko'ra qo'shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar

T/r	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo'yicha ajratilgan mablag' maqsadi	Miqdori (ming.so'mda)	Foiz hisobida
	1	2	3	4
	Jami tuman budjetining 2023-yil 2-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'lar		4 148 000,0	100%
	Jami summasi		21 000,0	0,5%
I.	Tuman hokimligi va boshqa budjet tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun		21 000,0	1%
1,1	Tuman hokimligi	Tovar-moddiy zaxiralar xarid qilish xarajatlari uchun	21 000,0	0,5%